


BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari ma'lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-dekabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **7,6** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,4 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



159

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

4 801

Ishlab chiqarish sanoati

19

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

110

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 5 089 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida -3,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash -14,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 95,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 20,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,2 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,1** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




5,1 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




6,5 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

787



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

19



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

14



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



414

yashash bo'yicha xizmatlar



2 136

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2 550 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 2,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 11,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,2 %) o'sishidir.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 3 786 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 192 taga yoki 5,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 450 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 130 taga yoki 3,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 440 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 476 taga yoki 48,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 407 tani tashkil etib, ulardan 400 tasi yoki 98,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 45 taga yoki 12,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida viloyatimizda 60 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- dekabr oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

14



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
Jami	156	274	298	355	400
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8	17	26	32	33
Sanoat	83	120	124	133	149
Qurilish	7	29	29	33	31
Savdo	25	57	64	88	111
Tashish va saqlash	1	6	5	6	12
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14	21	22	25	27
Axborot va aloqa	-	1	1	5	6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	4	6	7	7
Boshqa turlar	16	19	21	26	24


Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Viloyat bo'yicha	400	213	187
Buxoro shahar	214	97	117
Kogon shahar	16	13	3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	8	3	5
Buxoro	29	20	9
Vobkent	5	3	2
G'ijduvon	15	10	5
Kogon	31	20	11
Qorako'l	10	7	3
Qorovulbozor	11	5	6
Peshku	20	7	13
Romitan	18	11	7
Jondor	12	9	3
Shofirkon	11	8	3

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 214 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 52,5 %), Kogon tumani 31 ta (7,8 %), Peshku tumani 20 tani (5,0 %), Kogon shahar 16 ta (4,0 %), Buxoro tumani 29 ta (7,3%), hamda Jondor tumanlarida 12 tani (3,0 %) tashkil etadi.


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2018-2022- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investisiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar jami 35 905 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (27,8 %), G'ijduvon (10,8 %), Romitan (8,4 %), Buxoro (7,5 %), Jondor (6,9 %), Peshku (5,9 %), Shofirkon (5,9 %), Kogon (5,7 %), Qorako'l (5,7 %), Vobkent (5,4 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,6 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar jami 4 572 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (24,1 %), G'ijduvon (10,5 %), Buxoro (8,1 %), Romitan (8,5 %), Peshku (5,1 %), Kogon (8,7 %), Jondor (8,2 %), Vobkent (5,9 %), Shofirkon (5,8 %), Qorako'l (5,6 %), Olot (3,5 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumanlari va Kogon shahar (3,7 %) ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni



(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar jami 30 082 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (28,1 %), G'ijduvon (10,7 %), Romitan (8,8 %), Buxoro (7,8 %), Jondor (7,1 %), Peshku (5,8 %), Shofirkon (5,7 %), Kogon (5,9 %), Vobkent (5,4 %), Qorako'l (5,2 %), Kogon shahar (4,0 %), Olot (3,2 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022-yilning yanvar- dekabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Buxoro viloyati

Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Tel.: (65) 223-83-20